



AUTIZM SPEKTR BUZILISHIGA EGA BO'LGAN BOLALAR

Amirsaidova Sh. M

Nizomiy nomidagi O'zMPU Oligofrenopedagogika kafedrası p.f.n.dots.

Xikmatullayeva Muslima Dilshod qizi

Oligofrenopedagogika yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada autizm spektri buzilgan bolalarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvida psixokorreksion vazifalarning amaliy jihatlari keltirilgan. Autizm spektr buzilishiga ega bo'lgan bolalarning ijtimoiy moslashuvi muammosining psixologik xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Autizm spektri buzilishi, xulq-atvor, muloqot, psixiatr, shizofreniya, aqli zaiflik, irsiy kasallik, ijtimoiylashuv, psixokorreksion;

Аннотация: В данной статье представлены практические аспекты психокоррекционных задач в успешной социализации детей с расстройствами аутистического спектра. Приведены данные о психологических особенностях проблемы социальной адаптации детей с расстройствами аутистического спектра.

Ключевые слова: расстройство аутистического спектра, поведение, общение, психиатр, шизофрения, умственная отсталость, наследственное заболевание, социализация, психокоррекция;

Annotation: this article presents practical aspects of psychocorrectional tasks in the successful socialization of children with autism spectrum disorders. There are data on the psychological characteristics of the problem of social adaptation of children with autism spectrum disorders.

Keywords: autism spectrum disorder, behavior, communication, psychiatrist, schizophrenia, mental retardation, hereditary disease, socialization, psychocorrection;

Autizm spektri buzilishi—bu rivojlanishning murakkab neyrobiologik buzilishi bo'lib, odatda ijtimoiy aloqalar, muloqot va xulq-atvorda o'ziga xos o'zgarishlar bilan namoyon bo'ladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, har yuzta bola ichidan bittasi autism spektriga mansub deb hisoblanadi. Shung aqaramay, bubolalarningko'pchiligi o'z vaqtida tashxislanmaydi yoki to'g'ri yordamga ega bo'lmaydi, bu esa ijtimoiy rivojlanishni yanada murakkablashtiradi.

Autizm spektridagi bolalarning ijtimoiy moslashuviga faqat biologik yoki nevrologik omillar emas, balki ijtimoiy muhit, pedagogik yondashuvlar va oilaning holati ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunday bolalar ko'pincha o'z tengdoshlari bilan o'zaro munosabat o'rnatishda qiynaladi, muloqotda so'z emas, balki imo-ishoralar, tana harakati, tovush ohangi orqali fikr bildiradi. Shu sababli ijtimoiy moslashuv jarayonida nafaqat bola, balki uning atrofidagi butun muhit —maktab, sinf, oilaviy sharoit va jamiyat umumiy yondashuvni aks ettirishi kerak.

Autizm - miya rivojlanishining buzilishidan kelib chiqadigan va ijtimoiy o'zaro ta'sir va aloqada aniq va keng qamrovli tanqislik, shuningdek cheklangan qiziqishlar va takrorlanadigan harakatlar bilan tavsiflangan kasallik. Bu belgilarning barchasi uch yoshdan oldin paydo bo'la boshlaydi. Autizm atamasni birinchi bor shvetsiya psixiatri Eygen Bleyler tomonidan 1910-yilda shizofreniya kasalligining belgilaridan biri sifatida ishlatildi. Autizm



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

holati shizofreniya kabi ruhiy kasallikda ko'proq namoyon bo'ladi. Bola vaqtni sezmaydi, hozirda ro'y berayotgan voqeahodisalarni o'tgan yoki kelasi zamon bilan almashtiradi, real voqeahodisalarni fantastik mavhum voqeahodisalar bilan aralashtirib yuboradi. Autizm spektr buzilishiga ega bo'lgan bola faoliyati sustlashadi yoki keraksiz, noaniq faoliyat bilan shug'ullanadi. Bolaning xulq-atvori buziladi, o'yin faoliyati, qiziqishi sustlashadi, ma'yus holatda yuradi, kattalar va tengdoshlari bilan aloqada bo'lmaydi, hech kim bilan gaplashishni istamaydi, ba'zilar indamaslik (mutizm holati) kuzatiladi. 1943- yilda ingliz psixiatri Leo Kenner davolash amaliyotida 11 bolaning xulq-atvori, yurish-turishida o'xshash belgilarni kuzatib, «ilk yoshdagi bolalar autizmi» atamasini kiritdi. U kuzatgan barcha bolalardagi belgilar hozirgi kunda ham autizmning asosiy belgilari sifatida o'rganilmoqda. Shunga qaramay, ko'p yillar mobaynida bolalar autizmi aqli zaiflik, shizofreniya kabi va boshqa ruhiy kasalliklarning belgilari sifatida o'rganilgan edi. Faqatgina 1981-yildan boshlab bolalar autizmi mustaqil nuqson sifatida qabul etildi. Hozirgi kunda bolalar autizmi bosh miyaning rivojlanishidagi kamchiliklardan kelib chiqadigan mustaqil nuqson sifatida o'rganilmoqda. Biroq bosh miyaning rivojlanishidagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari hali ham noaniq. Ayrim olimlarning fikriga ko'ra, bolalar autizmi irsiy kasallik bo'lib hisoblansa, boshqalari esa autizm holati aqli zaiflikdan kelib chiqqanligini ta'kidlaydilar. Bolalarga «sababi noaniq bo'lgan rivojlanishning og'ir buzilishi» diagnozi qo'yilgan. tahxisni o'rganishda ko'proq bolaning xulq-atvoriga e'tibor beriladi. Autizmning birinchi belgilari bir yoshda paydo bo'lgan. Odatda sog'lom bola ilk yoshidan boshlab tevarak-atrofga qiziqish bilan qaraydi. To'rt oylik bolaga shiqildoq qo'lga tutilsa u xursand bo'ladi, onasini ko'rsa talpinadi va h.k. Bola autizmida esa go'dak atrofdagilarga e'tibor bermaydi, hech narsaga qiziqmaydi, yangi buyumlarni o'rganishni istamaydi, kattalarga ham talpinmaydi. Bunday bolalarning ijtimoiy moslashuvi va muloqotida turli muammolar paydo bo'ladi. Yengilroq belgilar va alomatlar qayd etilgan shunga o'xshash holatlar autizm spektrining buzilishi deb ataladi. Autizmning sabablari miyadagi sinaptik aloqalarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi genlar bilan chambarchas bog'liqdir, ammo kasallikning genetikasi murakkab va hozirgi vaqtda autizm spektrining buzilishining paydo bo'lishiga nima ko'proq ta'sir qilishi aniq emas:

Kamdan kam hollarda kasallikning tug'ma nuqsonlarni keltirib chiqaradigan moddalarga ta'sir qilish bilan bog'liq aloqasi topiladi. Boshqa taklif qilingan sabablar munozarali - xususan, autizmi bolalik davridagi emlashlar bilan bog'laydigan gipoteza uchun ilmiy dalil yo'q.

Autizmda miyaning ko'plab sohalarida o'zgarishlar qayd etilgan, ammo ularning qanday rivojlanishi aniq emas. Ota-onalar odatda bolaning hayotining dastlabki ikki yilida buzilish belgilarini sezadilar. Erta xulq-atvor va kognitiv aralashuv bolada o'z-o'ziga yordam ko'rsatish, ijtimoiy o'zaro ta'sir va muloqotni rivojlantirishga yordam berishi mumkin bo'lsada, hozirda autizmi to'liq davolay oladigan ma'lum usullar mavjud emas. Balog'atga yetganidan so'ng, kamdan-kam bolalar mustaqil hayotga o'tishga muvaffaq bo'lishadi, ammo ba'zilar muvaffaqiyatga erishadilar. Bundan tashqari, ularning ba'zi vakillari shifo izlamoqda, boshqalari autizm kasallikdan ko'ra ko'proq "maxsus", muqobil holat deb hisoblashadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2000 yilda autizmning tarqalishi har 10.000 bolaga 526 holat to'g'ri kelgan. 2005 yilda 250 - 300 nafar bolaga o'rtacha bitta autizm holati to'g'ri kelardi, bu bola yoshidagi qandli diabet, Daun sindrom yoki onkologik kasalliklardan ham yuqori degani. Jaxon Sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2008-yilda har 150 nafar bolaga 1 ta autizm holati to'g'ri kela boshladi. Shu vaqtdan e'tiboran Birlashgan



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Millatlar Tashkiloti (BMT) jamiyat uchun muammoning jiddiyligi hamda asoratlarning og'irligini tushungan holda 2 aprelni «Butunjahon autizm muammosi haqidagi axborotlarni tarqatish kuni» deb e'lon qildi. 2012 yilda Amerikadagi kasallanishni nazorat qilish markazi har 88 nafar bolaga 1 ta autizm holati to'g'ri kelganini ma'lum qildi. Qariyb 10 yil ichida autizmdan qiynalayotgan bolalar soni 10 barobarga ko'paygan. Achinarlisi shundaki bunday o'sish kelgusida ham davom etishi mumkin. Psixiatrlar bolada autizm kasalligi borligini darrov aniqlashga qiynalishadi. Bunga autizm alomatlari normal rivojlanayotgan bolada ham kuzatilishi sabab bo'ladi. Shu bois tashxis ko'pincha kechikib qo'yiladi. Autizm uchun xilma-xil holatlar xos, bunda go'dak bor-yo'g'i 2-3 ta alomatga ega bo'lishi mumkin, bu ham tashxis qo'yishning qiyinlashishiga va kechikishiga sabab bo'ladi. Bolalarda autizm sirli kasallik hisoblanib, har bir bemor o'z alomatlariga ega bo'ladi. Biroq har bir autizm bemoriga umumiy belgilar xosdir va ular ushbu xastalikning borligiga asos bo'la oladi. Bolalar autizmi alomatlari yoshga bogliqdir. Shuning uchun 4 ta asosiy alomatlar guruhi ajratib ko'rsatiladi: 1) erta bolalik autizmi (2yoshgacha bolalarda). 2) bolalar autizmi (2-11 yoshgacha bolalarda) 3) o'smirlar autizmi (11 - 18 yoshgacha bo'lgan o'spirinlarda). 4) kattalar autizmi (18 yoshdan keyin). Erta bolalar autizmi etiologiyasi haligacha aniq emas. Autizm asosan o'gil bolalarda kuzatiladi va ijtimoiy adaptasiya buzilishi, muloqot rivojlanishi va psixika buzilishi bilan ifodalanadi. Jumladan: Tez ta'sirlanishadi (masalan, chiroq yoki arzimagan shovqin ham ularni chuchitib yuboradi); Go'dakda nutq rivojlanishi sust kechadi; Bola ota-onasining ham ko'ziga karamaydi, nigohi boshqa tomonda bo'ladi Go'dak onasiga bog'lanib qolmaydi (u ketganda yig'lamaydi va kelganda kulmaydi); Bola boshqa bolalar bilan tajovuzkorona munosabatda bo'ladi, ular bilan o'ynashni va gaplashishni xoxlashmaydi; Go'dak yangi o'yinchoqlarga qiziqish bildirmaydi, faqat bittasi bilan o'ynashni ma'qul ko'radi. Erta bolalik autizmi 4 guruhga bo'lib tasniflash mumkin: Birinchi guruh. Sodir bo'layotgan hodisalarga umuman e'tibor bermasligi bilan ajralib turadi. Muloqot qilganda go'dak noqulaylikni his etadi, hatto, ota-onasi ham farzandini o'ziga qaratishga yoki kulishga ko'ndiraolmaydi. Nigohlarning to'qnashishi va jismoniy teginishlardan qochadi.

Ikkinchi guruh. Atrofdagi olamdan ajralib qolganligi bilan ifodalanadi. Bola tashqi dunyo bilan munosabatlarda o'ta talabchan bo'ladi, faqat ota-onasi va yaqin kishilari bilan muloqotda bo'ladi. Bitta kiyim, muayyan sharoit va taomga bog'lanib qoladi. Odatdagi holatdan har qanday chetga chiqish asabiy portlashga olib keladi. Bu guruhdagi bolalar qo'rquv hissini qattiqroq tuyishadi, undan o'ta ta'sirlanishadi. Uchinchi guruh. Autistik qiziqishlariga o'ralib olganligi bilan ajralib turadi. Bola o'z qiziqishlarini atrofdagi olamdan yashirishga urinadi. Bu qiziqishlar bilim olishga bog'liq bo'lmaydi, ular qayg'uli, daxshatli, tajovuzkorona xususiyatga ega bo'ladi. To'rtinchi guruh. Atrof-muhit bilan munosabatga kirishishi haddan tashqari qiyinligi bilan ifodalanadi, mazkur guruhga mansub bolalar ko'ngli nozikligi va gap ko'taraolmasligi bilan ajralib turishadi. Qandaydir to'siqqa duch kelsa yoki yoqmaydigan gapni eshitib qolsa, munosabatlardan qochishadi. Erta bolalar autizmi sindromi bu nafaqat bola yoshidagilar balki kattalarining ham muammosi, negaki autizm bir necha yillardan so'ng ham yo'qolib ketmaydi. Biroq erta tashxis qo'yish va mazkur kasallikni tuzatish autizmdan qiynalayotganlarning atrofdagilar bilan munosabatga kirishishiga ko'maklashadi. Olimlar bolalarda autizmning kelib chiqish sabablarini hali-xanuz aniqlay olishgani yo'q. Mazkur masalaga oid nazariyalar juda ko'p, biroq ulardan birortasi ham klinik tasdig'ini topganicha yo'q. Aksariyat olimlarning fikricha, bolalar autizmi irsiy kasallik, lekin autist bolalar ota va onasi genetik sog'lom oilalarda ham dunyoga kelishmoqda. Olimlarning aniqlashicha, ko'pincha autizm birinchi farzandda qayd etiladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Mazkur kasallikka homiladorlik davrida onadagi virusli infeksiya (qizilcha, qizamiq, suvchechak, TORCH) sabab bo'lishi ehtimoldan holi emas. U go'dakning bosh miya tuzilishida organik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bu esa keyinchalik bolalar autizmiga olib keladi. Bolalarda autizm alomatlarini go'dakligidayoq payqash mumkin, ko'pincha bu dard (kasallik) bolaning 3 yoshlarida yaqqolroq namoyon bo'ladi. Autizm alomatlari bolaning yoshi va rivojlanish darajasiga qarab o'zgarishi mumkin. Kattalardagi autizm ruhiyatning jiddiy buzilishi bilan ifodalanib, atrofdagi olamga moslashish va ijtimoiylashish darajasini keskin pasaytiradi. Erta yoshda bu kasallikka tashxis qo'yish juda mushkuldir. Negaki, hatti-xarakatidagi turli motorik va nutqidagi o'ziga xosliklarni kattalar bolaning yoshiga va fe'l-atvoriga oid deb hisoblashlari mumkin. Biroq katta yoshda autizm alomatlari atrofdagilarga yaqqol sezilib qoladi. Mazkur xastalik etiologiyasi haligacha to'liq o'rganilmagan. Irsiy va gen o'zgarishiga oid farazlar mavjud xolos. Boz ustiga, autizm bilan ko'pincha erkaklar xastalanishadi. Katta yoshli odam autizmdan qiynalsa, darrov ko'zga tashlanib qoladi. U sodir bo'layotgan voqea hodisalarga befarq qaraydi, hissiyotga berilmaydi va o'ta loqayd bo'ladi. Odam xuddi o'z dunyosida yashayotgandek tuyuladi. U begonalar bilan istar istamas muloqotga kirishadi. Faqat qarindoshlari va yaqin kishilari bilan munosabatda bo'ladi. Autistlarni quruq gapdan ko'ra sukutni afzal biladigan introvertlardan ajrata bilish muhimdir. Autistlarning aqliy qobiliyati past bo'ladi, ko'rsatkichi 50 dan oshmaydi va biror nimani o'rganishi juda qiyin. Autizmdan qiynalayotgan hamda muloqotga aralashmaydigan katta yoshli kishilar o'z fikr-hayollari bilan band bo'lishadi. Ular turli bema'ni hatti-xarakatlarni takrorlayverishi mumkin. Kattalar autizmi ko'pincha miyaga o'rnashib qolgan g'oyalar bilan kechadi. Bu vaqtda ular atrofdagi olamga loqayd bo'lib qolishadi. Ularni bu holatdan faqat birorta kutilmagan, notabiiy vaziyat chiqarishi mumkin. Ko'pincha autizmdan qiynaladigan bemorlarda tutqanoq kuzatiladi bu ko'pincha og'ir asoratlarga olib keladi. Ma'lumki, autistlarning qariyb yarmi o'ziga shikast yetkazib qo'yishadi. Bunday bemorlar nazorat, parvarish va e'tiborda bo'lishi talab etiladi, davolash samaradorligi esa kasallik bosqichi, darajasi va har bir autistning o'ziga xosligiga bog'liqdir. Xulosa qilib aytganda ushbu ma'lumotlarga asoslanib bolalikdagi autizmda buzilishlar atrof-muhit bilan aloqada past chidamlilik tufayli yuzaga keladi, bu yangilikka yo'naltirilgan xatti-harakatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Bolaning yaqin odamlar bilan, shuningdek, uning atrof-muhit haqidagi g'oyalarini cheklash, stereotip va bo'laklarga bo'lish uning mavjud bilim va ko'nikmalarini erkin qo'llashiga to'sqinlik qiladi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, biz autizimli bolalarning hissiy-irodaviy sohasini rivojlantirishning o'ta muhim roli to'g'risida quyidagicha xulosa chiqarishimiz mumkin yani, shaxsiyatni shakllantirishning zaruriy sharti - bu erta yoshda ta'sirchan sohani rivojlantirish va hissiy bog'lanishni shakllantirishdir. Autizm sindromli bolalar bilan ta'sirchan hissiy sohani rivojlantirishga qaratilgan tuzatish ishlari ularga normal hissiy rivojiga qaytishi uchun katta imkoniyatlar beradi. Faqatgina boshqa odamlar bilan aloqada bo'lgan, umumiy tajribada amalga oshirilishi mumkin bo'lgan, atrof-muhit bilan faol, mazmunli munosabatlarni rivojlantirish orqaligina autizmni yengib o'tilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.American Psychiatric Association. Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (DSM-5). Washington, DC: APA, 2013.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

2. Lovaas, O. I. Teaching Individuals with Developmental Delays: Basic Intervention Techniques. Austin, TX: PRO-ED, 2003.
3. Schopler, E., Mesibov, G. B. The TEACCH Approach to Autism Spectrum Disorders. Springer, 1995.
4. Baron-Cohen, S., Bolton, P. Autism: The Facts. Oxford University Press, 2008.
5. Vygotskiy, L. S. Psixologiya razvitiya rebenka. Moskva: Pedagogika, 1991.